

## “OIV infeksiyasi profilaktikasi”

### “OIV infeksiyasi profilaktikasi”

2018 yil 19 sentyabr kuni “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti talabalari bilan Institutning V - binosining 8- zalida Toshkent shahar SPID Markazi shifokori D.M.Ermatova va institut Tibbiy bo‘limi bosh shifokori B.Q.Eshniyozovlar bilan “OIV - inson salomatligiga ta‘siri va oqibatlari” va “Giyohvandlikning asr vabosi” mavzusida ma‘ruza bo‘lib o‘tdi.

Toshkent shahar SPID Markazi shifokori D.M.Ermatova o‘z ma‘ruzasida tadbir ishtirokchilariga OIV infeksiyasi profilaktikasi to‘g‘risida hamda giyohvandlik va uning salbiy oqibatlari haqida daliliy misollar keltirdi va talabalarga to‘liq tushunarli darajada ma‘ruzani olib bordi

Ma‘ruza juda qiziqarli o‘tdi va talabalar tomonidan o‘zlarini qiziqtirgan savollar berishdi va to‘liq javoblar olishdi.

Tadbir so‘ngida OIV infeksiyasi kasalligiga tegishli bo‘lgan video roliklarni namoyish etildi.

